

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) magistratura
mutaxassisligining malaka talablari*

Chirichiq — 2023

YEP GYM
2023.08.367
21 08 23

ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023-yil «21» 08 dagi 367-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi</i>	4
1.1.	<i>Qo'llanish sohasi</i>	4
1.1.1	<i>71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanishi</i>	4
1.1.2.	<i>Malaka talablarning asosiy foydalanuvchilari</i>	4
1.2.	<i>71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi</i>	4
1.2.1.	<i>71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari</i>	4
1.2.2.	<i>71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari</i>	5
1.2.3.	<i>71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari</i>	5
1.2.4.	<i>71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari</i>	5
2.	<i>71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar</i>	7
2.1.	<i>Umumiy kompetensiyalar</i>	7
2.2.	<i>Kasbiy kompetensiyalar</i>	8
2.3	<i>Umumiy va kasbiy kompetensiyalarini egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar</i>	8
2.3.1.	<i>Kvalifikatsiya</i>	8
2.3.2.	<i>71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:</i>	9
2.3.3.	<i>71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:.....</i>	9
	<i>Bibliografik ma'lumotlar</i>	11
	<i>Kelishuv varag'i.</i>	12

1. 71010303—Adaptiv sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi

71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Ta'lim shakli bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'llimda magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanishi.

Malaka talabi 71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarning asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma'sul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

– magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalar;

– magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari.

– ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatlari davlat organlari;

– oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatlari davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilarini va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

1.2. 71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.

1.2.1. 71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) "Xizmat ko'rsatish" ta'lim sohasiga mansub mutaxassislik bo'lib, u barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, oliy ta'lim muassasalari va tarmoq ilmiy tadqiqot-institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, markaziy va mahalliy davlat boshqaruv organlarida faoliyatni tashkil etish va boshqarishga oid adaptiv jismoniy tarbiya va sport muammolarni yechishga qaratilgan kompleks masalalarni hal etish, faoliyati yo'nalishida, nazologiyaning barcha turlarida qayta tiklash tadbirlarini, shuningdek sport faoliyatiga moslashish mexanizmlarini, kasbiy bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi, boshqarish qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyati vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

– oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

- oliy ta’lim muassasalari o’quv faoliyati va tarmoq ilmiy–tadqiqot institutlari va markazlar jarayonlarini;
- adaptiv jismoniy tarbiya va sportni boshqarish jarayonlari;
- inklyuziv ta’limda va jismoniy tarbiya va sport faoliyati;
- ta’lim va fan tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari, sog’lomlashtirish maskanlari, paralimpiya qo’mitasi va sport turlari federatsiyalari, xizmat ko’rsatish birlashmalarida moslashish va qayta tiklash faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonlari;
- ta’lim va fan, sport sohalarida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalgga oshirish jarayonlari.

1.2.3. 71010305 – *Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:*

- sport faoliyatida (murabbiy);
- pedagogik faoliyatida (xalq ta’limi va ixtisoslashtirilgan ta’lim tizimi muassasalarida o’qituvchi);
- ilmiy-tadqiqot faoliyatida;
- ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish faoliyatida;
- sportchilarni reabilitatsiya qilish va sog’lomlashtirish markazi faoliyatida;
- jismoniy tarbiya va sport-sog’lomlashtirish markazlari uslubchi xizmat faoliyatida;
- tashkiliy-boshqaruv.

1.2.4. 71010305 – *Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari:*

71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o’tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashv etish;
- ilmiy maqolalar, ma’ruzalar, risola, o’quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o’tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarini tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog’ida eng yangi ilmiy, konstrukturlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalган holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o’tkazish hamda faol ishtirok etish, o’tkazish hamda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarni konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;
- oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o’quv-uslubiy faoliyat yuritish;
- o’quv jarayoni va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, uqitishning texnik vositalaridan foydalanib o’quv mashg’ulotlarini o’tqazish;
- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o’quv metodik majmualarni mukammal o’zlashtirish;
- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish;

- jismoniy tarbiya va sport bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, yuqori malakali pedagog mutaxassislarini tayyorlash;
- jismoniy tarbiya va sportga oid ilmiy tekshirishlar bo'yicha namunaviy usullarda ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazish;
- respublika va xorijda chop etilgan jismoniy tarbiya va sportga oid ilmiy axborotlarning manbalarini o'rganish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;
- aprobatsiyadan o'tgan usullarni qo'llagan holda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyatning samaradorligini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqot o'tkazish;
- matematik-statistika usullari, axborot texnologiyalari yordamida tadqiqot natijalarini qayta ishslash usullaridan foydalana olish, umumlashtirish va xulosalarni shakllantira olish.

Tashkiliy-boshqaruv hamda xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- qonuniylikni ta'minlash, jamiyat, davlat va shaxs hamda xo'jalik faoliyati subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, turli mulk shakllarini himoya qilish;
- rejaviy va hisobot hujjatlarini tuzish, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini hamda sport musobaqalarini tashkil qila olish;
- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat va jamoat boshqaruv organlari hujjatlarini amaliy qo'llay olish;
- sport jamoalar, sport klublarida sport mashg'ulotlarini olib borish va sport musobaqalarini tashkil etish;
- bolalar va o'smirlar sport maktablari, ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktablari, olimpiya zaxiralari ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktablari, oliy mahorat sport maktablari, oliy sport mahorati maktablari, Respublika oliy sport mahorati maktablari, olimpiya zaxiralari kollejlari, sport federatsiya(uyushma)lari, sport klublari va milliy terma jamoalar bilan bog'liq ma'lumotlarni tahlil qilish va kuzatish;
- jismoniy tarbiya va sport, sport-sog'lomlashtirish muassassalari ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- ishlab chiqarish korxonalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish;
- xizmat ko'rsatish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;
- ijtimoiy hamda shaxsiy maqom va rivojlanishda yuzaga keluvchi nuqsonlar, shuningdek, sport faoliyatidagi turli kasbiy xavflarning profilaktikasi bo'yicha standart dasturlarni amalga oshira olish;
- vaziyatdan kelib chiqib maqsadlar va respondentlarning kontingentiga mos psixodiagnostik usullarni tanlab qo'llash hamda olingan ma'lumotlarni matematik-statistik qayta ishslash va to'g'ri talqin qila olish;
- jismoniy tarbiya va sport sohasi doirasidagi kasbiy faoliyat strukturasini malakali kadrlar bilan to'ldirib borish;
- yosh toifasi hamda rivojlanish bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, gender, etnik, kasbiy va boshqa ijtimoiy qatlamlarga mansubligini hisobga olgan holda sportchilar faoliyatining o'ziga xos jihatlarini aniqlay olish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

2. 71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) ta’lim mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qiliq qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi, insonning ma’naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo‘lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olishi;
- shaxsning inson, jamiyat, atrof muhitga bo‘lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me’yorlarni kasbiy faoliyatida qo‘llay olishi;
- yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtira olishi, takomillashtirishi va o‘z mchnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;
- o‘zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;
- o‘z faoliyatida me’yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;
- fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og‘zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy mas’uliyat shakllangan bo‘lishi;
- kasbiy faoliyatda o‘zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo‘lishi;
- axborotni to‘plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi;
- o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- axborot, bilim, ma’lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo‘lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;
- bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi;
- ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishi;
- ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlashi;
- patent olish uchun ish me’yoriy hujjatlar tayyorlay olishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo‘lishi lozim.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasini egallashi;
- oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazzarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish mahoratiga ega bo'lishi;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish;
- mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv metodik hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish;
- statistika amaliyotida qo'llaniladigan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ko'rsatkichlaridan foydalanishni;
- Juhon para sporti va xalqaro para sport munosabatlari sohasida ma'lumotlar yig'ishni tashkillashtirish va ularning sifatini baholashni bilishi;
- Adaptiv sport turlarini rivojlantirish, musobaqalar tashkil etish, motivatsiyalash va muvofiqlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishni;
- Adaptiv jismoniy tarbiya va adaptiv sportga oid munosabatlarda faoliyatga moslashish mehanizmini tushunishi;
- sport-sog'lomlashtirish tizimidagi institutlar faoliyati va uni tashkillashtirilishini ta'minlashi lozim.
- mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik va kompyuter vositalaridan foydalanish;
- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi yangi shakl, metodlar vositalarni o'zlashtirish va o'z-o'zini rivojlantirish;
- elektron axborot ta'lim muhitida ta'lim jarayonini pedagogik loyihalashtirish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallahni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar-magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallahga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – mutaxassislik doirasidan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

2.3.1. Kvalifikatsiya:

- tanlangan sport turi bo'yicha trener;
- jismoniy tarbiya va sport sohasi pedagogi;
- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi tashkiliy-boshqaruv faoliyati mutaxassisi.

2.3.2. 71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lif shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1560	52
Tanlov fanlar	240	8
Ilmiy faoliyat	1800	60

2.3.3. 71010305 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) mutaxassisligi bo'yicha ta'lif dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaganing hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	1560	52	
1.01	382ITME2301	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	382SAST2302	Sportchilarni adaptiv sport turlariga tayyorlash texnologiyalari	120	4	1
1.03	382SMST2303	Sportda matematik-statistik tahlil (1-qism)	120	4	1
1.04	382SMST2304	Sportda matematik-statistik tahlil (2-qism)	120	4	2
1.05	382ASJT2305	Adaptiv sog'lomlashtirish jismoniy tarbiya texnologiyalari (1-qism)	120	4	1
1.06	382ASJT2306	Adaptiv sog'lomlashtirish jismoniy tarbiya texnologiyalari (2-qism)	120	4	2
1.07	382AJTK2307	Adaptiv jismoniy tarbiyada nazorat turlari va sport klassifikatsiyasi (1-qism)	180	6	1
1.08	382AJTK2308	Adaptiv jismoniy tarbiyada nazorat turlari va sport klassifikatsiyasi (2-qism)	180	6	2
1.09	382AJTI2309	Adaptiv jismoniy tarbiya va sportda ilmiy tadqiqotlar (1-qism)	120	4	2
1.10	382AJTI2310	Adaptiv jismoniy tarbiya va sportda ilmiy tadqiqotlar (2-qism)	120	4	3
1.11	382AJTB2311	Adaptiv jismoniy tarbiya va sportni boshqarish (1-qism)	120	4	2
1.12	382AJTB2312	Adaptiv jismoniy tarbiya va sportni boshqarish (2-qism)	120	4	3
2.00		Tanlov fanlar	240	8	3
2.00		<i>Tanlov fanlar (2 ta fan)</i>	240	8	3
		Jami	1800	60	
		Ilmiy faoliyat	1800	60	
	382ITMI2301	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertasiyasini tayyorlash	1110	37	1,2,3,4
	382IPEI2302	Ilmiy pedagogik ish	240	8	1,2,3
	382IAML2303	Ilmiy amaliyot (tajriba ortirish)	450	15	4
		Jami	1800	60	
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, reabilitatsiya, registratura mutaxassisining asosiy o'quv reja va fan dasturi, profil, o'qib-o'rghanish natijalari, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kasbiy bilimlar, sport turi bilan shug'ullanish motivatsiyasi, individning antropometrik, jismoniy va nozologik xususiyatlari, ommaviy razryadli sportchilar bilan ishlash, bolalar va o'smirlar sporti, sport orientatsiyasi va saralashi tizimi, pedagogik nazorat va korreksiya texnologiyalari, inson jismoniy holatini boshqarish, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari, sport musobaqalari, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat va jamoat boshqaruv organlari, xavfsizlik texnikasi, innovatsion g'oyalar, sportchi, jamoa, sport klubni, yosh toifasi, rivojlanish bosqichlari, sport-sog'lomlashtirish tizimi.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilar

ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Rektor



M. Boltabayev

2023-yil « 21 »

» _____

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va
ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi

Direktor _____ Sh. Yakubov

2023-yil « 21 » 08

Paralimpiya sport turlari bo'yicha
mutaxassislarni tayyorlash instituti

Direktor _____ J. Xasanov

2023-yil « 21 »

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati
va sport vazirligi

Vazir o'rinbosari

B. Raximova

2023-yil « 21 »

Respublikali Olimpiya va paralimpiya
sport turlariga tayyorlash markazi

Direktor _____

A. Mamadaliyev

2023-yil « 21 »

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
71010305-Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) mutaxassisligi malaka talablari va
o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar
iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Chirchiq sh.

"___" 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vaziri o'rinnbosari D. Raximova, Paralimpiya sport turlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash instituti direktori J. Xasanov, Respublika Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi direktori A. Mamadaliyev va O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rektori M. Boltabayev birlgilikda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

71010305-Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) mutaxassisligi:

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-som farmoni, 2017-yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-som, 2017-yil 27-iyuldagagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-som, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-som, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi "2019/2020- o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi PQ-4359-som Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjalilar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati
va sport vaziri o'rinnbosari**


D. Raximova

**Paralimpiya sport turlari bo'yicha
mutaxassislarni tayyorlash instituti direktori**


J. Xasanov

**Respublika Olimpiya va paralimpiya sport
turlariga tayyorlash markazi direktori**


A. Mamadaliyev

**O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport
universiteti rektori**


M. Boltabayev